

and demand for it becomes inelastic. This, in turn, can lead to increased affordability, wider access to technology, and overall economic growth in the digital world.

References:

- Bell D. *The coming of post-industrial society: A venture of social forecasting*. — N.Y.: Basic Books, 1973, ISBN 0-465-01281-7
- Castells, M. *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell, 1996.
- <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyevningoliy25-01-2020>
- Dahlman, C., Mealy, S., & Wermelinger, M. (2016). *Harnessing the digital economy for developing countries*.
- DeSousa V., McConatha D., Lynch M.J. (2011) *The Nexus of Digital Technology, Sociology and Economics. The International Journal of Interdisciplinary Social Sciences*. Vol. 5, No. 10, pp. 211-219.
- Makhmutkhodjaeva, L. S., & Talipova, N. T. (2023). *DIGITAL ECONOMY AS AN IMPORTANT COMPONENT OF THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF MODERN UZBEKISTAN. OF MANAGEMENT, ECONOMICS AND LAW*, 202373.
- <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>
- <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/42163-o-zbekiston-respublikasida-telekommunikatsiya-xizmatlari-10>
- <https://www.budde.com.au/Research/Uzbekistan-Telecoms-Mobile-and-Broadband-Statistics-and-Analyses>

QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHNING SAMARADORLIGI

G.T.Saidova, magistr
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O`zbekiston Respublikasida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining rivojlanishiga e`tibor juda katta. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishslash, uzoq vaqt mobaynida sifatini buzmagan holda saqlash va aholini ular bilan bir tekis ta`minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu masala juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir.”2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmonida ham bu masalaning dolzarbligi alohida ta’kidlangan. Farmonga ko’ra milliy iqtisodiyot barqarorligini ta`minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilib olingan.¹⁶⁶

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojining keyingi yillarida sanoat -mahsulotlarini yetishtirishni ko’paytirish bilan birgalikda ularni chuqur qayta ishslash va saqlash masalalariga e`tibor qaratilmoqda.

¹⁶⁶O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvar № PF-60.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shu jumladan, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish orqali ishlab chiqaruvchi (fermer xo‘jaligi) uchun qo‘srimcha barqaror daromad manbai yaratiladi. Mahsulotni qayta ishslash orqali unga qo‘srimcha qiymat qo‘shiladi, ya’ni mahsulotning qiymati ortib boradi.

Mahsulotni qayta ishslash darajasi turlicha, ya’ni dastlabki qayta ishslash yoki chuqur qayta ishslash bo‘lishi mumkin. Dastlabki qayta ishslashga quritish kabi oddiy amaliyotlar kirsa, chuqur qayta ishslash mahsulotga bir necha bosqichlarda ishlov berish, ya’ni konsyervatsiya qilish, sharbat olish, qadoqlash kabi amaliyotlarni o‘z ichiga oladi.

Qayta ishslashni yo‘lga qo‘yishni rejalashtirgan xo‘jalik yoki tadbirkorlar, avvalo, o‘z atrofida xomashyo bazasining yetarli bo‘lishiga va mavjud xomashyo hajmidan kelib chiqqan holda xarid qilib, o‘rnataladigan qayta ishslash uskunasining quvvatini to‘g‘ri tanlanishiga e’tibor qaratishlari lozim bo‘ladi.

Yana bir asosiy jihat ishlab chiqarilgan mahsulot uchun bozor masalasidir. Ya’ni, ishlab chiqarilgan mahsulot tashqi bozorda sotiladimi (eksport), ichki bozorda sotiladimi, buni aniq rejalashtirish kerak. Agar ishlab chiqariladigan mahsulot eksport qilinadigan bo‘lsa, sotib oluvchi davlatning standart talablariga to‘liq javob berishi, shuningdek, mahsulot ham narx jihatdan, ham sifat jihatdan raqobatbardosh bo‘lishi lozim. Bu omillar ichki bozorga mahsulot sotishda ham muhim omil hisoblanadi. Aks holda qayta ishlovchi faqat ombor uchun mahsulot ishlab chiqaradi va kutgan natijasiga erishmaydi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlov berish xomashyoning isrofgarchilagini ogohlantirish va to’xtatish hamda ulardan ko‘p miqdorda sifatlari mahsulot olish hisoblanadi. Texnologiya xomashyodan unumli foydalanishni, shuningdek uni qayta ishlagandan keyin hiqqan chiqitlardan o’simlikshunoslik va chorvachilikni rivojlantirishda foydalanishni o‘rgatadi. Qishloq xo‘jalik mutaxassislar o’zi yetishtirgan mahsulotni qanday maqsadda ishlatilishini bilishi shart. Bu ishni bilish barcha mutaxassis uchun yuqori va sifatlari hosil olishda xizmat qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni qo’llaganda agrosanoat majmui bir yaxlit tashkilot singari boshqarilishi, rejalashtirilishi va iqtisodiy ta’milanishi kerak. Majmuining barcha bo‘g’inlarida agrar ishlab chiqarish birlashmalariga o’rnini oshirish hamda aholini oziq-ovqat bilan muntazam ta’minlashda ma’suliyatni chuqur his qildirish.

Agrosanoat tarkibida barcha sohalar bilan qishloq xo‘jaligi fani o’rtasida aloqalarni kuchaytirish xo‘jaliklarning qayta ishslash korxonlalaro, savdo va jamoat ovqatlanish tizimlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirish. Tayyorlov idoralari va xo‘jaliklar o’rtasida tuzilgan shartnomalarni bajarishda o‘zaro ma’suliyatni oshirish. Ishlab chiqarish jarayonida va realizasiya paytida mahsulot sifatini yaxshilash hamda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik. Qayta ishslash korxonalarini joylashtirishni takomillashtirish hamda xom-ashyo bazasiga yaqinlashtirish. Yuqori sur’at bilan yangi sovutgichlar texnikasini qo’llash va rivojlantirish. Mahsulotlarni tashish va saqlash uchun agrosanoat majmuini refrijerator transporti va konteynerlar bilan to‘liq ta’minlash. Xo‘jaliklarda keng ko‘lamda nonvoxonalar, sabzavotlarni tuzlash punktlari, turli xil konservalalar tayyorlaydigan kichik va o’rta korxonalar, meva va uzumlarni quritish maydonchalari tashkil etilayapti. Don va boshqa qishloq xo‘jalik

mahsulotlarini qayta ishlash uni saqlash bilan uzviy chambarchas bog'langandir. Korxonalarini muntazam, yarim fabrikatlar va tayyor mahsulotlar saqlanadigan omborlar bo'lishi shart.

Inson qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'mol qila boshlagandan buyon uni saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanib keladi. Yetishtirilgan mahsulotni nesnobud qilmasdan va sifatini pasaytirmasdan saqlash, undan unumli foydalanish qadimdan inson ehtiyojlarining asosiyalaridan biri bo'lган.

Ko'chmanchi xalqlar yig'ilgan meva urug'larni saqlash uchun maxsus yerto'lalar qurishgan. Qabilalar o'troq bo'lib yashay boshlagan paytda ortiqcha mahsulotlarni saqlash, shuningdek zararkunandalardan asrashni o'rgana boshlashgan.

Mamlakatimizni turli hududlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash quldarlik tuzumi davridayoq amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Bu yerlardan mahsulotlar saqlanadigan ko'za va boshqa idishlar topilgan. Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston sharoitida ham qadimdan qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga katta e'tibor berib kelingan. Mintaqamizda ob-havo bir kecha-kunduz davomida ham o'zgarishi mumkin. Go'sht, yog', sut, baliq, tuxum kabi mahsulotlar issiqda tez buziladi, juda qattiq sovuqda esa sabzavot va mevalar muzlab qoladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoda qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha Markaziy Osiyoda IX-XI asrlarda bir qator asarlar yaratildi. Ularda dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash tilga olingan. Ular bu mahsulotlarning foydaliligini va ularni qishin -yozin iste'mol qilish zarurligini bayon etganlar. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari hozirgi holga kelguncha uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Don tegirmoni tarixi mashina sistemasini asta rivojlanishi va ishlab chiqarish usullarini o'zgarishini o'z ichiga oladi. Suv tegirmonidan foydalanish birinchi marta eramizdan avvalgi X-asr boshlarida quldor Ueارت davlatida suv g'ildiraklari o'rnatilgan tegirmonlarda qo'llanilgan. Inson qachondan boshlab donni oziq-ovqat sifatida iste'mol qilayotganini aniq aytish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvar № PF-60.

<https://www.agro.uz/11-0090/>

[https://xs.uz/uz/post/qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dolzarb vazifalar](https://xs.uz/uz/post/qishloq_xo'jaligi_va_oziq-ovqat_mahsulotlari_ishlab_chiqarish_bo'yicha_dolzarb_vazifalar).

МИНТАҚАВИЙ ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ТАМОЙИЛЛАРИ

**О.Баймуратов, магистрант
Б.К.Кеулімжәаев, талаба
Бердақ номидаги ҚКДУ**

Минтақавий иқтисодий тизимларнинг замонавий инновацион бошқаришининг кўплаб вазифалари минтақанинг илм-фан ва инновация